

UDK: 618, 3:578.36 -616, 647

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OIV – INFEKTSIYASI BO‘YICHA ANIQLANGAN HOLATLAR

Ne‘matova N.O‘., Abdukaxarova M.F.,

Musabekova M.Sh., Xamzayeva N.T.

Toshkent tibbiyot akademiyasi,

O‘zbekiston Respublikasi OIV/OITSGa qarshi kurashish Markazi

Annotasiya: Maskur maqolada OIV infeksiyasi va uning epidemiologik xususiyatlar Centre for HIV/AIDS Control of the Republic of Uzbekistan, birlashgan millatlar tashkilotining OIV/OITS infeksiyasi bo‘yicha dasturi (YUNEYDS)ning bergan ma‘lumotlariga ko‘ra OIV infeksiyasining so‘ngi yillarda dunyo bo‘yicha tarqalganligi, OIV-infeksiyasining ma‘muriy xududlar bo‘yicha taqsimoti ko‘rsatkichlari, kasallikning ko‘p yillik dinamikasi holatlar, OIV-infeksiyasining jinslar bo‘yicha taxlili natijalari bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan va ushbu kasallik ustidan bir qancha tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, tadqiqot doirasida profilaktik chora tadbirlar va xulosa shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: OIV infeksiyasi, kasallanish, infeksiya darajasi, tarqalish.

Аннотация: В данной статье посвящённой ВИЧ-инфекции и её эпидемиологической характеристики, по данным Программы ООН по ВИЧ/СПИД-инфекции (ЮНЭЙДС), распространение ВИЧ-инфекции в мире за последние годы, показатели распространения ВИЧ зараженности по административным районам, многолетняя динамика заболевания. Дана информация о результатах анализа ВИЧ-инфекции по полу, проведен ряд исследований по данному заболеванию, в рамках изучения сформированы меры профилактики и выводы.

Ключевые слова: ВИЧ-инфекция, заболеваемость, нфицированность, распространенность.

Abstract: This article is dedicated to HIV infection and its epidemiological characteristics, according to the United Nations Program on HIV/AIDS (UNAIDS), the spread of HIV infection in the world in recent years, the spread of HIV infection by administrative region, and the long-term dynamics of the disease. Information is provided on the results of an analysis of HIV infection by gender, a number of studies have been conducted on this disease and as part of the study, preventive measures and conclusions have been formed.

Key words: HIV infection, incidence, infection rate, prevalence.

Mavzuning dolzarbligi: Hozirgi zamon tibbiyoti va sog‘liqni saqlash tizimining eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lgan OIV-infeksiyasi dunyoning barcha davlatlarida keng tarqalganligi bilan ajralib turadi [1,3,7].

40 yildan ortiq vaqt davomida OIV epidemiyasi butun sayyoramiz bo‘ylab tarqalib, ulkan pandemiyaga aylanib, bugungi kunda dunyoning ba‘zi mamlakatlarida juda katta iqtisodiy zarar keltirmoqda. Sog‘liqni saqlash sohasida va boshqa sohalarda epidemik vaziyatni beqarorlashtiradi va mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishishga to‘sqinlik qilmoqda. Bu eng murakkab tibbiy-ijtimoiy muammo bo‘lib, millionlab odamlarning kasalligi va o‘limi bilan bir qatorda, iqtisodiy va siyosiy jihatlarni o‘z ichiga olgan holda, jahon miqyosidagi xususiyatga ega bo‘lib, dunyo taraqqiyotiga haqiqiy tahdid tug‘dirdi [7].

OIV epidemiyasi deyarli butun dunyoni qamrab olganiga qaramay, uning turli mintaqalarda rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlar va farqlarga ega bo'lib, ularni o'z vaqtida aniqlash, o'rganish va bilish to'g'ri yondashuvni tanlashda juda muhim rol o'ynashi mumkin [6].

2023- yil oxirida, JSST hisob-kitoblariga ko'ra, dunyo bo'ylab OIV infeksiyasi bilan yashaydigan 39 million (33,9–43,8) million kishi bo'lgan, yangi zararlanganlar soni 1,3 mlrd [1–1,7 mlrd], 1,7-millionni, kasallik bilan vafot etganlar soni esa 630 000 [480 000–880 000 mlrd] etgan. Ularning uchdan ikki qismidan ko'prog'i (25, 4 million) Afrika mintaqasida yashagan [4, 9, 2].

2023-yil 30-iyun holatiga ko'ra, Rossiya Federatsiyasi fuqarolari orasida 1664149 kishi OIV infeksiyasining immun blot bilan tasdiqlangan tashxisi bilan ro'yxatga olingan (OIV infeksiyasi bilan kasallanganlarning dastlabki ma'lumotlariga ko'ra), shu jumladan: kasallik bilan vafot etganlar so'ni esa 475150 (28, 6%) teng [10].

O'zbekistonda OIV infeksiyasining birinchi holati 1987 yilda qayd etilgan bo'lib, OIV infeksiyasining birinchi paydo bo'lishi paytidan boshlab 2022 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 71 000 nafar shaxslar aniqlandi

Ayni paytda (2022-yil) O'zbekistonda 48658 nafar OIV infeksiyasi bilan yashayotganlar ro'yxatga olingan. bo'lib, shulardan eng katta ko'rsatgich Toshkent sh. 10545 nafar, eng kam ko'rsatgich Navoiy viloyatida 514 nafarni tashkil etadi [2,8].

Tadqiqot maqsadi. O'zbekiston Respublikasida OIV infeksiyasi tarqalishining epidemiologik xususiyatlarini o'rganish va uning profilaktikasini takomillashtirish.

Tadqiqot materiali va usullari: OIV-infeksiyasi epidemiologik xususiyatlarini o'rganish maqsadida O'zbekiston Respublikasi OIV/OITS kasalligiga qarshi kurashish markazi OIV-infeksiyasi bilan kasallanish bo'yicha 2000-2023 yillardagi rasmiy ma'lumotlari o'rganildi va retrospektiv tahlil qilindi.

Natijalar va muhokama. Kasallikning ko'p yillik dinamikasida (2000-2023 yillar davomida) 3722 ta xolatga oshganligi qayd etildi. Shundan 2000 yilda 154 holat, 2009 yilda 4016 holatga ko'tarilib, 2011 yilga kelib, kasallikning 3584 holat bo'lib, 2009 yilga nisbatan bir oz pasayganligini, 2021 yilda 2817 xolat kayt etilgan bo'lib, epidemiologik vaziyat ancha barkarorlashganini kuramiz, ya'ni 767 xolatga pasaygan. 2023 yilga kelib kasallik kursatgichi birmuncha oshganligini, 3872 xolat holati ro'yxatga olingan.

OIV infeksiyasi bilan kasallanishning gender tuzilishida an'anaviy ravishda erkaklar ulushi ustunlik qiladi. OIV infeksiyasi bilan kasallangan ayollar ulushining o'sishi mintaqaviy epidemiologik xususiyatlarni tushuntirib beradigan, epidemiyaga jarayonining etakchi omillarini ko'rsatadigan va ayrim hududlar va aholida epidemiyaning rivojlanish mexanizmini bashorat qila oladigan muhim ko'rsatkich (shu jumladan prognostik ahamiyatga ega) hisoblanadi. 2022-2023yillarda OIV infeksiyasi bilan kasallangan shaxslarni jinsi bo'yicha tahlil qilganda, 2022 yilda 290 nafar (62 %) erkaklar, 178 nafar (38 %) kishini ayollar tashkil etishi ma'lum bo'ldi. Ro'yxatga olingan OIV bilan kasallanganlarning umumiy soniga nisbatan erkaklar o'rtasida OIV infeksiyasi holatlari ko'paymoqda.

OIV infeksiyasining profilaktika va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun yuqish yo'llarini aniqlash katta ahamiyatga ega. Butun dunyoda ham, mamlakatda ham so'nggi yillarda OIV infeksiyasining jinsiy yo'l bilan yuqishi ortib bormoqda.

2022-2023 yillarda OIV bilan kasallangan infeksiyaning yuq'ishini tahlil qilganda, (77, 5 % -77, 0%) jinsiy yo'l, (11, 7-10, 6 %) parenteral, (0, 6-0, 2 %) vertikal yo'l bilan yuqishi aniqlangan.

OIVning yuqtirib olish xavfi yuqori bo'lgan guruhlar orasida tarqalganlik dinamikasi 2005-2021 yillar kesimida qaraydigan bo'lsak kasallik dinamikasi keskin pasayganini ko'ramiz. Giyohvand moddalarini tomir ichiga qabul qiluvchilarda 2005 yilda 19,7%, 2021 yilda 2,9%, raxbatlantitish evaziga jinsiy aloqa qiluvchilarda 2005 yilda 4,7%, 2021 yilda 1,27%, erkaklar bilan erkaklar jinsiy aloqa qiluvchilarda 2005 yilda 10,8%, 2021 yilda 4,5% tashkil etgan. Ushbu yillarda kasallik dinamikasi giyohvand moddalarini tomir ichiga qabul qiluvchilarda 16,8% ga, raxbatlantitish evaziga jinsiy aloqa qiluvchilarda 3,43%, erkaklar bilan erkaklar jinsiy aloqa qiluvchilarda 6,3% pasayganini ko'ramiz.

Tibbiy yordam ko'rsatishda tibbiyot xodimlarining kasbiy infeksiyasi xavfi ortib bormoqda. Tibbiyot xodimining infeksiyasi diagnostika va davolash muolajalarini bajarish jarayonida, shuningdek, jarohatlar (kesish, in'ektsiya, suyak bo'laklari bilan terining shikastlanishi va boshqalar) va ifloslanish holatlarida sog'liqni saqlash muassasalaridan chiqindilarni yig'ish va yo'q qilish paytida sodir bo'lishi mumkin. Bemorning OIV viruslarini o'z ichiga olgan biologik suyuqliklari bilan teri va shilliq pardalar.

O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahrida 2020-2021 yillarda OIV aniqlanib, yuqish yo'li parenteral tibbiy muolaja orqali deb gumon qilingan holatlar: 2020-yilda 11 oyda OIV infeksiyasi aniqlanib ro'yhatga olinganlar jami – 419 nafar (i/k-16, 4);

-Jumladan, 18 yoshgacha bo'lgan bolalar jami – 20 nafar (i/k-2, 6);

OIV infeksiyasi tibbiy yondoshuv orqali yuqqanligi gumon qilingan 25 nafar shaxslar 34ta DPMLarga 43 marotaba murojaat qilib, 55 marotaba statsionar yoki ambulatoriya sharoitlarida davo muolajalarini olgan.

2021-yil 11 oyda OIV infeksiyasi aniqlanib ro'yhatga olinganlar jami – 472 nafar (i/k-17,8);

- Jumladan, 18 yoshgacha bo'lgan bolalar jami – 20 nafar (i/k-2, 6);

OIV infeksiyasi tibbiy yondoshuv orqali yuqqanligi gumon qilingan 28 nafar shaxslar 28 ta DPMLarga 50 marotaba murojat qilib, 53 marotaba statsionar yoki ambulatoriya sharoitlarida davo muolajalarini olgan.

Xulosa:

1. OIV infeksiyasi bilan kasallanish holatlari respublikaning ma'muriy hududlari bo'yicha notekis taqsimlangani qayd etildi.

2. Bu hodisa epidemik jarayonga jalb qilish davri, ijtimoiy-demografik xususiyatlari, aholi zichligi, urbanizatsiya darajasi, muayyan hududning giyohvand moddalar savdosiga yaqinligi, migratsiya jarayoniga yoshlarning jalb etilishi darajasi va ko'plab omillar bilan izohlanadi.

3. OIV infeksiyasiga qarshi kurashning eng muhim samarali chorasi profilaktika hisoblanadi. OIV infeksiyasining oldini olish virus manbalari, mexanizmlari, yuqish yo'llari va omillari, shuningdek, sezgir populyatsiyalar, shu jumladan aholining zaif guruhlari bilan bog'liq holda kompleks tarzda amalga oshirilishi kerak.

4. Hozirgi vaqtda dunyoda OIV infeksiyasining oldini olishning o'ziga xos vositalari mavjud emas. Shu sababli, og'ir holatlarda ushbu dahshatli kasallikdan himoyalanih butunlay odamning xatti-harakati va turmush tarziga bog'liq. Salomatlikni saqlash va infeksiyani oldini olishning asosiy sharti - axloqiy poklik va tanlangan hayot sherigiga sodiqlik. Har doim va hamma joyda faqat shaxsiy gigiena vositalaridan (tish cho'tkalari, ustalar, pichoqlar va boshqalar) foydalaning. tasodifiy jinsiy aloqadan saqlaning; Agar ular paydo bo'lsa - prezervativdan foydalanishni unutmang. Giyohvand moddalarni iste'mol qiladigan odamlar bilan jinsiy aloqada bo'lmang.

5. O'zingizni va sherigingizni prezervativdan tizimli va to'g'ri foydalanishga o'rgating; bu OITS bilan kasallanish ehtimolini kamaytirishga yordam beradi, jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar va istalmagan homiladorlikdan himoya qiladi. Ishonch hosil qilish uchun nikohdan oldin OIV testini o'tkazish tavsiya etiladi.

Adabiyotlar:

1. Неъматова Н. Ў., Абдукахарова М. Ф., Хамзаева Н. Т. Механизм Развития Эпидемического Процесса При Внутрибольничной Вич-Инфекции В Городе Таш кент //Open Herald: Periodical of Methodical Research. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 19-23.
2. Urakovna, N. N., Sultanovna, M. G., Yunusovich, M. A., Fakhridinovna, A. M., Toshtemirovna, X. N., & Vlademirovna, B. E. (2023). Epidemiological Analysis Of The Human Immunodeficiency Virus. World Bulletin of Public Health, 21, 95-98.
3. Матназарова Г. С., Неъматова Н. Ў., Рахмонбердиев М. А. Оив Инфекциясининг Юқиш Йўллари Ва Олдини Олишчора-Тадбирлари //Микробиологиянинг Долзарб Муаммолари» Мавзусидаги Республика Илмий-Амалий Анжумани. – 2023. – Т. 131.

4. Абдукахарова, Муаттар Фахридновна, and Нигора Ўраковна Неъматова. ОИВ/ОИТС касалликка чалинган беморларга кўйиладиган чекловлар. Diss. Sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta'minlash va aholi salomatligini muhofaza qilishning dolzarb muammolari, 2022.
5. Nematova N. U. et al. Epidemiological Situation In Hiv-Infections And Prevention //Materials of International Scientific-Practical Conference. – 2022. – С. 67.
6. ДЖ, Б. В., НУ, Н., & МФ, А. (2022). ЗАБОЛЕВАЕМОСТЬ ВИЧ-ИНФЕКЦИЕЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН (Doctoral dissertation, " Юқумли касалликлар бўйича Миллий Конгресснинг Тезислар тўплами").
7. Калниязова, Инобатхон Байрамовна, et al. "Ўзбекистонда хомиладор аёллар орасида оив-инфекцияси бўйича эпидемик вазият." (2022).
8. Неъматова Н. и др. ОИВ-инфекциясининг эпидемиологик хусусиятлари. – Международная научно-практическая конференция" Актуальные проблемы инфектологии, эпидемиологии и паразитологии", 2022.
9. Матназарова Г., Абдукахарова М., Неъматова Н. Odamning immuntanqisligi virusi infersiyasining epidemiologiyasi va profilaktikasi. – 2021.
10. Неъматова Н. У., Абдукахарова М. Ф., Алматова У. А. Эпидемиологическая ситуация по вич-инфекции в Республике Узбекистан. – 2021.
11. MATNAZAROVA G. et al. The new coronavirus-COVID-19 in Uzbekistan //International Journal of Pharmaceutical Research (09752366). – 2020. – Т. 12. – №. 4.
12. Неъматова Н. У. и др. Эпидемиологические особенности ВИЧ-инфекции в Республике Узбекистан. – 2020.
13. Mirtazayev O. M. et al. Scientific, methodological and organizational bases of management of the epidemic process in case of salmonellosis infection in Uzbekistan //Central Asian Journal of Medicine. – 2019. – Т. 2019. – №. 4. – С. 72-80.
14. Toshtemirovna X. N. et al. COVID-19 INFEKSIYASINING EPIDEMIOLOGIK RAQAMLI KO'RSATKICHI //IQRO INDEXING. – 2024. – Т. 8. – №. 2.
15. Khamzaeva N. T. et al. THE EFFECTIVENESS OF A NEW FOOD SUBSTANCE-A HARD GELATIN CAPSULE-«VISION JUNIOR» IS BEING STUDIED IN CHILDREN WHO HAVE RECOVERED FROM THE CORONAVIRUS //World Bulletin of Public Health. – 2023. – Т. 20. – С. 41-45.
16. Khamzaeva N. T. et al. THE EFFECTIVENESS OF A NEW FOOD SUBSTANCE-A HARD GELATIN CAPSULE-«VISION JUNIOR» IS BEING STUDIED IN CHILDREN WHO HAVE RECOVERED FROM THE CORONAVIRUS //World Bulletin of Public Health. – 2023. – Т. 20. – С. 41-45.